

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA GASTRONOMIK BIRLIKLARNING
ONOMASTIK TAHLILI

Suyunova Sitora Fazliddin qizi

*O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakulteti**Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti E-mail: sitorasuyun@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada onomastikaning gastronomik birliklarga oid yo'nalishi, xususan, o'zbek va turk tillaridagi oziq-ovqat nomlarining o'xshashlik va farqlari tahlil qilinadi. Har ikki xalqning til va madaniyati yaqin bo'lgani bois, ularning gastronomik leksikasida ko'plab umumiyliklar mavjud. Misol tariqasida, choy, sut, baliq, palov kabi so'zlar, shuningdek, sho'rva turlari va ularga berilgan nomlar keltiriladi. Matnda tilshunoslikdagi "o" lashish hodisasi ham yoritiladi. O'zbek va turk tillarida mavjud ayrim ovqat nomlari ko'rinish jihatidan farqli bo'lsa-da, ma'nodosh hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Onomastika, gastronomik birlik, til va madaniyat, turk tili, o'zbek tili, oziq-ovqat nomlari, til o'xshashligi, o' lashish hodisasi

KIRISH

Bugungi kunda tilshunosligimizda rivojlanayotgan sohalardan biri onomastika hisoblanadi. Gastronomik birliklar ya'ni oziq-ovqat nomlari, onomastikaning yo'nalishlaridan biridir. Har bir millatning o'z madaniyatini ko'rsatib turuvchi gastronomik birliklari mavjud. Bu birliklarga issiq taomlar, shirinliklar, sabzavotlar, ichiladigan suvlarning hammasi kiradi. Aynan o'zbek va turk madaniyatida biri-biriga o'xshash, shu bilan birgalikda farqli gastronomik birliklar mavjud. adaniy Aloqalar: Gastronomik terminologiyani o'rganish ikki xalqning madaniy aloqalarini, tarixiy bog'liqliklarini tushunishga yordam beradi. Bu turdagi tahlillar turkiy tillarning umumiy xususiyatlarini, evolutsiyasini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bir-biriga yaqin bo'lgan tillarni o'rganayotganlar uchun bu o'xshashliklarni bilish o'rganishni osonlashtiradi. O'zbek va turk tillaridagi gastronomik birliklarning onomastik tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tillar o'rtasida oziq-ovqat nomlari borasida sezilarli o'xshashliklar mavjud. Bu o'xshashliklar tilning umumiy ildizlari, madaniy almashinuvlar va tarixiy aloqalar natijasidir. Ko'plab nomlar deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi, ba'zilarida esa fonetik yoki leksik o'zgarishlar kuzatiladi.

Asosiy qism

Biz bilamizki, ikki xalqning tili bir ildizdan chiqqan. Shuning uchun ikki til leksikasida o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin. Biz ichimliklardan ko'k choyni, turklar esa bardak choyni sevib iste'mol qilishadi. Bizda choy gastronomik birligi o' lashish hodisasiga uchragan (choy-çay). O' lashish hodisasi turkiy tillar ichida faqat o'zbek tiliga xos. Bunda ikki tildagi choy ham bir narsani anglatadi, faqat belgisi (ta'mi, rangi) va tayyorlanish usuli farq qilishi mumkin. Bunday o'xshash leksimalarga sut, shakar, tuz, palov, baliq kabilarni kiritishimi mumkin.

Limon-limon

Sut-süt

Uzum-üzüm

Shakar-şeker

O'zbek va turk tillarida solinadigan masalliq'larga yoki tayyorlanish texnikasiga qarab nom beriladigan taomlar mavjud. Masalan, qaynatma sho'rva (hamma masalliq'lar qaynatilgan holda pishiriladi), qovurma sho'rva (masalliq'lar dastlab yog'da qovuriladi, so'ng suv solib pishiriladi), kalla sho'rva (qo'y yoki ho'kizning kallasi, tuyog'i solib uzoq vaqt qaynatiladi), teftel sho'rva (go'shtni maydalab, dumaloq shaklga keltirib solinadi) kabi sho'rva turlarini bilamiz. Turklarda ham xuddi shunday mercimek chorba, balik chorba, kofteli chorba kabi sho'rva turlari mavjud.

Ikki tilda shakli boshqa bo'lsa ham ayni ma'no ifodalaydigan gastronomik birliklarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Pamidor-domates

Kartoshka-patates

Non-ekmek

Sariyog'-tereyaği

Xulosa sifatida, ushbu maqola o'zbek va turk tillaridagi gastronomik birliklarning leksik o'xshashligi va madaniy aloqadorligini chuqur yoritib, tilshunoslikda onomastikaning yangi bir yo'nalishini ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbek va turk xalqlarining leksik-madaniy umumiyligini asos qilib olgan holda, ularning gastronomik birliklaridagi o'xshashlik va farqlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Har ikki xalq turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani sababli, ularning taom nomlari va ovqatlanish madaniyatida o'xshash unsurlar ko'rib chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
- 2.B.Yo'ldoshev.O'zbek tili onomastikasi masalalari" fanidan uslubiy qo'llanma.Samarqand-2011
3. Ikramova N. Uzbekskaya kulinariya leksika: Dis...kand.filol.nauk. Toshkent-1983 168s.
- 4.Nurova Y "O'zbek xalq paremlarining etnolingvistik xususiyatlari(kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida)" dis.Buxoro-2023 86-116b
- 5.Xudayorova M O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.fn.dis...aftoreferat.Toshkent-2008
6. Hamraqulova B Surxandaryo vohasida bola tug'ulishi va tarbiyasi bilan bog'liq urf-odat va marosimlar (XIX asr oxiriXX asr boshlari)diss.qo'lyozmasi T.2002 B-57